


Science Conference

www.science-conference.com

a digital platform dedicated to disseminating a wide array of scientific research articles and papers. It serves as a valuable resource for the scientific community and others interested in cutting-edge scientific knowledge and insights.



2024
No 1 (2)

TABLE OF CONTENTS

QUANTUM SUPREMACY: EXPLORING THE DISRUPTIVE POTENTIAL OF QUANTUM COMPUTING ON CRYPTOGRAPHY AND LEGAL FRAMEWORKS FOR DATA SECURITY.....	2
Islombek Abdikhakimov.....	2
ЗАЩИТА ГОСУДАРСТВЕННОГО СУВЕРЕНИТЕТА В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ	13
Салауат Коньисбаев.....	13
RAQAMLI AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLAR.....	20
Parvina G‘ulommamatova.....	20
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNCHILIGIDA KIBERJINOYATLARNI TERGOV QILISH VA ULARNING AHAMYATI.....	31
Abbosjon Olimov.....	31
RAQAMLI MUALLIFLIK HUQUQI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI, KELIB CHIQISHI, ASOSIY TAMOYILLARI.....	38
Mohinur Bahramova.....	38
Behruz Eshpo‘latov.....	38
RAQAMLI BOSHQARUVNING HUQUQIY ASOSLARINI BAHOLASHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.....	45
Jamshid Odilov.....	45
FUQAROLIK SUD ISHLARINI YURITISHDA ADVOKATNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.....	56
Maftuna O‘rolova.....	56
MARKAZLASHTIRILMAGAN AVTONOM TASHKILOTLAR (DAO) VA O‘ZGARMAS TOKENLAR (NFTS) KABI RIVOJLANAYOTGAN BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARNING XALQARO QONUNCHILIKKA POTENTIAL TA‘SIRI..	67
Nazokat Ismoilova.....	67
ZAMONAVIY HUQUQIY PARADIGMA KONTEKSIDA KIBER SPORT SOHASINI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY VA HUQUQIY JIHATLARI.....	74
San‘atjon Ergashev.....	74
KIBERXAVFSIZLIK VA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI.....	80
Shohruh Rabbimov.....	80
KIBERMAKONNI TARTIBGA SOLISHDA XALQARO HUQUQNING YANGI YO‘NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI.....	88
Xonzodabegim Raxmatova.....	88

RAQAMLI BOSHQARUVNING HUQUQIY ASOSLARINI BAHOLASHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Jamshid Odilov

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

odilovjamshid1234@gmail.com

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda hukumat va jamiyat o‘rtasidagi turli xil munosabatlar va shu jumladan tobora oshib borayotgan axborot bilan ishlashni samaradorligini oshirish maqsadida raqamlashtirishning o‘rni xalqaro hamjamiyatda beqiyos ahamiyatga egadir. Davlat organlari va idoralari faoliyatining rivojlantirish jarayonida uning faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan raqamli boshqaruvni rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi. Boshqaruvning barcha sohalarini raqamlashtirish orqali rivojlanish ko‘rsatkichini keyingi bosqichiga ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi.

KALIT SO‘ZLAR

Raqamli boshqaruv, elektron hukumat, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli madaniyat, raqamli savodxonlik

KIRISH

Bugungi globalashuv davrida barcha sohalar qatori yurispuridensiya sohasida ham zamonaviy tendensiyalar vujudga kelib keng ommalashmoqda. Xususan, davlat va huquq rivojlanishida raqamlashtirish jarayonlari faollik bilan kechmoqda ayniqsa davlat boshqaruv tizimini raqamlashtirish ya'ni raqamli boshqaruv yoki elektron hukumat faoliyatini yo'lga qo'yish va takomillashtirish jahon miqyosida ilg'orlashayotgan muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ma'lumki hech bir sohani boshqaruvsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki boshqaruv yo'q joyda tartib va samaradorlik ham bo'lmaydi. Ananaviy boshqaruv o'rniga kelayotgan elektron boshqaruv har qanday faoliyatni nazorat qilish rivojlantirish va boshqarishda ko'plab qulayliklarni yaratmoqda. Misol uchun, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish orqali muayyan bir soha doirasidagi jarayonlar elektron ravishda boshqarish imkoniyati yaratiladi. Buning afzalligi shundaki, barcha jarayonlarni kuzatish, tartibga solish va nazorat qilish yagona tizim orqali amalga oshadi.

Davlatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda asosiy vazifalarni amalga oshirish raqamli texnologiyalarni muvafaqqiyatli tatbiq etish bilan uzviy bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev takidlaganidek: «Bugun axborot texnologiyalari har bir jabhaga kirib borgan. Bu soha rivojlansa, boshqa sohalar ham ilgarilaydi, odamlarga qulayliklar oshadi».^[1] Haqiqatdan ham, bugungi kunda davlat boshqaruvi va jamiyatning barcha sohalarida aniq maqsadlarga erishish raqamlashtirish tizimini qo'llanmasdan amalga oshirish mumkin emas. Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonida qay darajada muvaffaqiyat qozonishi ko'p jihatdan bu masalaning texnik, huquqiy jihatlari bilan birgalikda subyektiv omilga, yani davlat xizmatchilarining va jarayon subyektlarining bu g'oyani qo'llab-quvvatlashi, uni amalga oshirishi bilan ham bog'liqdir. Prezidentimiz Sh.M.Mirzoyoev ham haqli ravishda ta'kidlaganidek, «Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart»^[2] deya aholining va davlat organlari xodimlarining raqamli savodxonligini va madaniyatini oshirish orqali yuqori samaradorlikga erishish mumkinligini takidlaydi. Bugungi raqamlashtirish sharoitida raqamli savodxonlikni oshirish konseptual hujjatlarda, shuningdek, davlat rahbari tomonidan asosiy vazifalar sifatida

belgilab berilayotgan bo'lsa ham, ushbu tushunchalar amaldagi qonunchiligimizda o'z aksini topmagan. Ammo, axborot texnologiyalari sohasidagi ta'lim berishni takomillashtirishda «Raqamli O'zbekiston-2030» Strategiyasining 2-bobida quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha chora-tadbirlar nazarda tutilganligini ko'rish mumkin: aholining raqamli ko'nikmalarini oshirishga doir; davlat boshqaruvida raqamli ko'nikmalarni oshirishga doir; ta'lim sohasida raqamli ko'nikmalarni oshirish yo'naltirilgan chora-tadbirlar shular jumlasidandir. Shuningdek, mazkur Strategiya va 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasining mantiqiy davomi sifatida davlatimiz Prezidenti tomonidan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"da va "2022-2023 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi^[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 avgustdagi PQ-357-sonli qarorida ham muhim sohalarni raqamlashtirilishga alohida e'tibor qaratilgan.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolani tahlil qilish uchun xorijiy mamlakatlardagi raqamli boshqaruvning rivojlanishini davlat boshqaruvida tutgan o'rni qiyosiy tahlil qilindi. Shu bilan birgalikda elektron hukumatning rivojlanishi ahamiyatini analiz sintez qilindi. Shuningdek davlat boshqaruvidagi amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar va saylovlar tizimida elektron hukumatning qanday darajada faoliyat olib borilayotganligi ilmiy nazariy hamda amaliy misollar bilan yoritib berilgan.

NATIJALAR

Qayd etish mumkin, raqamlashtirish bo'yicha davlat dasturlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat organlari xodimlari va xalqning raqamli savodxonligiga bog'liq ekanligini amaliyot ham tasdiqlamoqda. Haqiqatdan ham, davlat boshqaruvini raqamlashtirish sohasidagi yuqori darajadagi raqamli madaniyat mamlakatdagi raqamli transformatsiyaning harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi mumkin. Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlasak, Qozog'iston Respublikasida "raqamli savodxonlik" huquqiy kategoriya sifatida shakllantirilib, "Raqamli savodxonlik – bu shaxsning

kundalik va kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilimi va qobiliyatidir”deya "Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi^[4] qonunining 1-moddasi 56-bandida talqin etilgan. Bundan tashqari, ushbu qonunda raqamli savodxonlikni oshirish axborotlashtirish sohasidagi davlat boshqaruvining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Raqamlashtirish yuqori darajada rivojlangan Norvegiyada yoshi, jinsi, ish bilan bandligi, ma’lumot va yashash joyidan qati nazar, aholining raqamli savodxonligini oshirish bo‘yicha ishlar uzluksiz ravishda dastur asosida amalga oshirilishini ko‘rish mumkin. Ular bunda davlat tomonidan AKT sohasidagi mutaxassis va o‘qituvchilarni mukammal tarzda o‘qitishni joriy etishi bilan ahamiyatlidir. Masalan, Irlandiyada doimiy ishsizlarni AKT sohasi bo‘yicha malakali o‘qitish orqali qayta integratsiyalash tizimi mavjud. Shuningdek, katta kompaniyalar bilan yaqin aloqada bo‘lgan holda turli darajadagi AKT bo‘yicha treninglar o‘tkazish uchun Irlandiya hukumati, ta’lim muassasalari, mahalliy davlat hokimiyati bilan yaqindan hamkorlik qiladigan xayriya tashkilotlar (FastTrack) mavjud. Aholining raqamli savodxonlikni oshirishda bugungi kundagi asosiy muammo aholining keksa yoshdagi fuqarolarining raqamli savodxonlik darajasi bilan bog‘liq. Shunday qilib, raqamli savodxonlik nafaqat IT texnologiyalaridan foydalanish masalasi, balki umumiy ijtimoiy muammo sifatida qonunchilikda o‘zining huquqiy asosga ega bo‘lishini taqoza etadi.^[5]

Vaholanki, davlatimizda «Elektron hukumat» tizimi «hukumat – davlat», «hukumat – biznes», «hukumat – fuqaro» yo‘nalishlari bo‘yicha joriy etilishini hisobga olgan holda:

- davlat nomidan ish yurituvchi davlat xizmatchilarining raqamli madaniyatini oshirish;
- davlat funksiyalarini amalga oshirishda yordamchi kuch xususiy sektor vakillarining raqamli madaniyatini oshirish;
- aholining raqamli madaniyatini oshirish zarurligini isbotlash zarur.

Shunday ekan, davlatda raqamlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishida davlat nomidan ish yurituvchi davlat xizmatchilarining raqamli savodxonligi va raqamli madaniyatini oshirishda amalga oshirish mexanizmini

yangilanishni taqoza etadi. Masalan, Jahon banki va Davlat statistika qo‘mitasi rahbar xodimlari tomonidan davlatimizdagi statistika holati tahlil qilinganda «...malakali mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyoj statistik malumotlarni qayta ishlashda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanishga imkon bermaydi»^[6] deya takidlay turib, Davlat statistika qo‘mitasining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti «elektron va masofadan o‘qitish kurslarini yo‘lga qo‘yish uchun moliyaviy va kadrlar resurslarining yetishmasligi»^[7] o‘z vazifalari va funksiyalarini bajarish bo‘yicha faoliyatini sifatliroq amalga oshirishiga to‘sqinlik qilishini ko‘rsatib o‘tadi. Bugungi raqamlashtirish shiddat bilan amalga oshirilayotgan zamonda muvaffaqiyatli professional o‘shishda asosiy omillardan biri sifatida Yu.I.Gribanov yangi paydo bo‘layotgan texnologiyalar bo‘yicha yangi bilimlarni doimiy ravishda o‘zlashtirish va ularni foydalana olish imkoniyatga ega bo‘lishni nazarda tutadi.^[8] Shu o‘rinda jahon davlatlari tajribasiga nazar tashlasak, deyarli ko‘pchilik davlatlarda xodimlar malakasini oshirish dasturlari ixtiyoriy bo‘lib, ayrim, masalan Singapurda «Asosiy raqamli ko‘nikmalar» testidan past ball to‘plagan xodimlar malaka oshirish kurslarida o‘qishi majburiy qilib belgilangan. Shuningdek, bu o‘quv dasturlari bepul o‘qitilib, Polsha, Singapur davlatlarda pullik asosda, ixtiyoriy tanlov asosida o‘qitiladi. Yani, Singapur Hukumatida davlat xizmati bo‘limi tashkil etilib, uning asosiy faoliyati davlat xodimlarining kasbiy va raqamli malakasini oshirishdan iborat ekanligini ko‘rish mumkin. Ayrim davlatlarda esa xodimlarning raqamli savodxonligini oshirish bo‘yicha maxsus onlayn-platformalar, xususan, Kanadada “Busrides-onlayn” o‘qitish platformasi, shuningdek, Davlat xizmati maktabi asosida – “Raqamli Akademiya” tashkil etilgan, AQSH da “USALearning-onlayn” platformasi, Braziliyada esa – “EV.G-boshqaruvning virtual maktabi” yaratilganligini ko‘rish mumkin. Estoniyada esa davlat organlari xodimlarining malakasini oshirishda asosan xususiy sektor keng foydalaniladi. Masalan, Practus kompaniyasi «amaliy o‘qitish va ishdan ajralmagan holda davlat organlari xodimlari malakasini oshirish» bilan shug‘ullanadi. Demak, davlat tuzilmalarini raqamlashtirish va elektron hujjat aylanishiga o‘tish sharoitida davlat hokimiyati va boshqaruv organlari xodimlarini zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish sohasida kasbiy tayyorgarligi uchun sharoit yaratilishi bilan birga, ularning malakasini baholash

metodikasi alohida ahamiyatga ega. Qayd etish kerakki, davlat xizmatchilari malakasini oshirish AKT salohiyatidan foydalanish asosida ma'muriy jarayonlarni o'zgartirish orqali faoliyatning umumiy samaradorligini va natijaliligini oshirish bo'yicha vakolatlarini rivojlantirishni o'z ichiga qamrab olmagan bo'lishi mumkin. Buning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

— «elektron hukumat» tizimiga o'tish sharoitida obyektiv zarur bo'lgan vakolatlar tarkibi va darajasini oshkor etishning davlat darajada tasdiqlangan usullari, ularni qo'llash amaliyotining yo'qligi;

— davlat xizmatchilari malakasini oshirish va vakolatlarining zarur darajaga muvofiq o'zgarishini baholashga asoslangan maxsus dasturning mavjud emasligi;

— malaka oshirishga taalluqli yagona axborot resursining yetarli darajada shakllanmaganligi (qonun hujjatlari, metodik, tahliliy va turli o'quv qo'llanmalar, shuningdek, talim muassasalarining ixtisoslashuvi) shular jumlasidandir. Bunday holatlarni va uning paydo bo'lish sabablarini bartaraf etish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

— davlat xizmatchilarining vakolatlari tarkibi va darajasini tahlil qilish hamda aniqlashning tegishli metodologiyasini ishlab chiqish va tasdiqlash, bu esa raqamlashtirish jarayonida belgilab olingan maqsadlariga erishishini taminlashga xizmat qiladi;

— davlat xizmatchilarining malakasini oshirish zarurligini tasdiqlash va tegishli dasturlarni shakllantirishda ushbu metodikani qo'llash zarurligini ko'rsatish;

— davlat xizmatchilarining yuqorida qayd etilgan metodikada belgilangan talablarga muvofiqligi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish. Shu o'rinda qayd etish kerakki, davlatimiz Hukumati tomonidan 13.03.2021 yilda 134-son bilan tasdiqlangan «Davlat tashkilotlari xodimlarining huquqiy savodxonligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bilan davlat tashkilotlarida ishlovchi xodimlarining huquqiy savodxonligi darajasini oshirish va baholash tartibi belgilanib, bu jarayon Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan huquqiy savodxonlikka oid o'quv dasturi asosida davlat xizmatining yagona

elektron-axborot tahlil tizimidagi «Davlat tashkiloti xodimlarini sinovdan o'tkazish moduli» orqali amalga oshirish mexanizmi yaratilgan.^[9]

Ya'ni ko'rib turganimizdek bu mexanizm xodimlarga ishlab chiqarishdan ajralmagan holda, masofadan turib, huquqiy savodxonligini oshirish imkoniyatini yaratmoqda. Va shundan kelib chiqib, davlat organlari rahbarlari va xodimlarining raqamli savodxonligini oshirish bo'yicha maxsus vakolatli organ tomonidan ishlab chiqilgan o'quv dasturi asosida xodimlarning raqamli savodxonligi bo'yicha malakasini oshirishni masofadan turib amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish zarur, deb hisoblaymiz. Va tahlillar natijasida raqamli savodxonlikni oshirish uchun davlatimizda asosan qo'yidagi vazifalar amalga oshirilishi darkor deb o'ylaymiz. Birinchidan, raqamli savodxonlikni amalga oshirish jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazaning doimiy ravshda takomillashtirilishi; Ikkinchidan, raqamli savodxonlikni oshirish bo'yicha aniq strategik rejaning ishlab chiqilishi; Uchinchidan, strategik rejani ishlab chiqishda aholining toifalarini hisobga olgan holda, masalan keksa yoshdagilar, yoshlar, ishsizlar va boshqa toifadagilarning manfaatlarining hisobga olinishi; To'rtinchidan, raqamli savodxonlikni oshirish jarayonlariga xususiy sektorni keng jalb qilish mexanizmlarining ishlab chiqilishi;

Raqamli ma'lumotlarni boshqarishdagi muvozanatli global yondoshuv butun dunyo bo'ylab mamlakatlar, biznes tashkilotlar o'rtasida ko'proq ma'lumot almashishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu muhim ma'lumotlarni topish, tayyorlash, saqlash, amalga oshirish va boshqarish imkoni demakdir. Ma'lumotlarni boshqarish va salohiyatni oshirish kuchli xalqaro hamkorlik va raqamli tafovvutlarni bartaraf etishga yordam beradi.

2015-yildan buyon dunyoda internet foydalanuvchilari soni 3 milliarddan 5,3 milliardga oshganligi, mobil keng polosali ulanish, uyali aloqa tarmoqlari abonentlari ulushi 3 milliarddan qariyb 7 milliardga o'sgani aytib o'tildi. Global internet protokoli trafigi – ma'lumotlar oqimi uchun soniyasiga 46 000 dan 150 000 gigabaytgacha – uch barobarga oshgani haqida ham ma'lumotlar taqdim etilgan.^[10]

O'zbekiston misolida ko'rib chiqiladigan bo'lsa, Prognozlash va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti – PMTI mutaxassislari tadqiqotlariga ko'ra, 2022-yilda

aholining 75 foizi internetdan foydalanish imkoniga ega bo'lgan. 2017-yilda bu ko'rsatkich 34,5 foiz edi. Uyali aloqa tarmoqlari abonentlari ulushi 2017-2022-yillarda 70 foizdan 86 foizga (o'sish 1,2 barobar) ko'tarilgan.

AQSh va Xitoy raqamli ma'lumotlardan foydalanishda birinchi o'rinda turadi. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar asosan global raqamli platformalar uchun to'liq bo'lmagan ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar bo'lib qolmoqdalar, shu bilan birga ular ma'lumotlardan foydalangani uchun pul to'lashlari ham kerak. Hindiston ma'lumotlarga asoslangan raqamli texnologiyalar orqali bo'shliqni qisqartirmoqda va rivojlanishni optimallashtirmoqda. Hindistonning raqamli davlat infratuzilmasi dasturi so'nggi besh yil ichida deyarli 9 million yangi soliq to'lovchilarni qo'shdi va raqamli to'lovlarni deyarli universal qildi. Dastur tufayli Hindiston shahar va qishloq joylarida deyarli 500 million bank hisoblarini ochdi va ma'lumotlar narxini 90% ga pasaytirdi.

XULOSA

Raqamli ma'lumotlarni boshqarish xavfsizligi axborot xavfsizligining muhim jihati hisoblanar ekan tashkilotlar hodisalarning oldini olish va ularning obro'sini himoya qilish uchun maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun tegishli choralarni ko'rishlari ham muhimdir. Raqamli ma'lumotlarni boshqarishda barqaror global yondashuv dolzarb ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy muammolarni hal qilishga yordam beradigan "asosiy strategik aktiv" ekanligini ham e'tiborga olmoq lozim. Agar ma'lumotlar to'g'ri boshqarilsa, pandemiya va iqlim o'zgarishi kabi global rivojlanish muammolarini hal qilishga yordam beradi. Shu bilan birga ma'lumotlar va ma'lumotlar oqimiga beparvolik bilan yondashish atrof-muhit, xavfsizlik, inson huquqlari va tengsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Davlatlarning milliy ustuvorliklariga muvofiq faoliyat yurituvchi boshqaruv tizimlari barcha sohalarda axborotni to'playdi, tahlil qiladi va qo'llaydi. Boshqaruv tizimini ishlab chiqish orqali mulk huquqi, iqtisod, siyosiy mulohazalar va boshqa sohalarga asoslangan tizimlarni yaxshiroq boshqarish uchun zarur xususiyatlarni o'rganish, tahlil qilish va aniqlash mumkin. Xususan, boshqaruv tizimi davlatlarning o'z qadriyatlarini saqlab qolgan holda milliy ustuvorliklari bo'yicha qarorlarni yaxshiroq qabul qilishga yordam beradi. Ma'lumotlarni ishlab chiqish salohiyatidan to'liqroq foydalanish

va ma'lumotlarni boshqarishni optimallashtirish maqsadida boshqaruv tizimlari O'zbekiston va dunyoning barcha mamlakatlari uchun juda muhimdir.

ADABIYOTLAR

[1] Президент Шавкат Мирзиёевнинг 2022 йил 14 апрел куни ахборот технологиялари соҳасидаги натижалар ва жорий йилги вазифалар муҳокамаси юзасидан ўтказилган йиғилишдаги маърузаси. // <https://president.uz/uz/lists/view/5127/>

[2] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. //2020 йил 24 январь.// (Электрон манба) <https://nrm.uz>

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 22.08.2022 yildagi PQ-357-son, “2022-2023 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

[4] Аманиязова Света. (2022). Рақамлаштириш жараёнида ижро этувчи ҳокимият органлари ваколатларини такомиллаштириш (Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши мисолида). Innovations in Technology and Science Education, 1(1), 253–265. Retrieved from <http://humoscience.com/index.php/itse/article/view/36>

[5] К общественным знаниям. Всемирный документ ЮНЕСКО. ЮНЕСКО. [Электронный ресурс].URL: http://www.intelros.ru/pdf/doklad_yunesko_2005_k_obshzestvam_znaniya.pdf

[6] «2020-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida statistikani rivojlantirishning milliy strategiyasi». /Mualliflar guruhi. Toshkent -2019.

[7] www.fasttrackdigital.net

[8] https://tass.ru/nacionalnye-proekty/7422319?utm_source=yandex.ru&utm_medium=organic&utm_campaign=yandex.ru&utm_referrer=yandex.ru/

[9] O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tashkilotlari xodimlarining huquqiy savodxonligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Vazirlar Mahkamasining 13.03.2021 yildagi 134-sonli qarori // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti - <https://lex.uz/uz/docs/-5330379>

^[10] UNCTAD - Palais des Nations, 8-14, Av. de la Paix, 1211 Jeneva 10,
Shveytsariya //
[https://unctad.org/news/unctad-calls-balanced-global-approach-manage-digital-
data](https://unctad.org/news/unctad-calls-balanced-global-approach-manage-digital-data)